

MAKTABGACHA 5-6 YOSHLI BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASI**Musayeva Nafisa Kudratovna***NavDU dotsent,**musayevanafisa19@gmail.com***Bahronova Sabina Elmurod qizi***NavDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi**Sabinabaxronov@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi 5-6 yoshli bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda milliy qadriyatlarni ahamiyati keng yoritilgan bo‘lib, milliy madaniyat, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodi va ularning tarbiyaviy roli, milliy tarbiya yo‘nalishidagi amaliy tashabbuslar va ilmiy yondoshuvlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, maktabgacha ta'lim, urf-odatlar, vatanparvarlik, metodlar, dostonlar, ilmiy yondoshuv.

Annotation: This article extensively covers the importance of national values in the formation of moral qualities in preschool children aged 5-6 years, analyzes national culture, customs, folklore and their educational role, practical initiatives and scientific approaches in the direction of national upbringing.

Keywords: National values, moral education, preschool education, traditions, patriotism, methods, epics, scientific approach.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bolalarni milliy qadriyatlar va an‘analar asosida rivojlantirishning samarali shakllari orasida milliy urf-odatlarini o‘rganish, xalq o‘yinlari va hunarlarini o‘rgatish, milliy bayramlarni nishonlash, madaniy merosni o‘rganish va oila davrasida milliy qadriyatlar haqida suhbatlashish kiradi. Ushbu usullar bolalarning milliy o‘ziga xosligini shakllantirishga, ajdodlar merosiga hurmatni shakllantirishga va ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasi jamiyatning ma'naviy barqarorligi va kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, 5–6 yosh davri shaxsning psixologik

jihati juda sezgir bosqichdir, bu davrda bola dunyoni qabul qilish va o‘zligini shakllantirishga tayyorlanadi. Ushbu yoshda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiya bergan holda, bolalarda mehr-oqibat, halollik, vatanparvarlik, bir-birini hurmat qilish, kattalarga salom berish, kichiklarni izzat qilish va boshqa ijtimoiy-ma’naviy fazilatlarni erta shakllantirish uchun muhim bosqich hisoblanadi.

Bolalarni milliy qadriyatlar va an’analar asosida rivojlantirishning samarali usullari orasida oila, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va o‘zaro munosabatlarga e’tibor qaratish muhimdir. Bu jarayonda oila va qadriyatlarning uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz mamlakatimizda ma’naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishimiz kerak. Bu orqali nafaqat bugunimiz, istiqboldagi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti ham farovon bo‘ladi”.

Milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiya berishni turli xil mazmuni va metodikasining zamonaviy ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan metodlarni quyidagicha ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarni singdirishning quyidagi mazmuniy yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Vatanparvarlik va milliy g‘urur: Bolalarda vatan, ozodlik, mustaqillik tushunchalarini shakllantirishda xalq dostonlari, milliy tarixiy voqealar, she’rlar va qo‘shiqlardan foydalanish lozim.

2. Mehr-oqibat va hurmat: Oilaviy urf-odatlar, xalq maqollari orqali bolaga mehribonlik, qarindoshlarga va do‘stlarga hurmat tuyg‘usi singdiriladi.

3. Halollik va adolat: Maqollar, matallar, og‘zaki ertaklar bolaga odob-axloqiy prinsiplarni anglashda yordam beradi.

4. Madaniy meros bilan tanishtirish: Milliy bayramlar (masalan, Navro‘z), milliy o‘yinlar, an’anaviy musiqa va raqs bolalarda estetik va madaniy ongini shakllantiradi.

5. Ma’naviy tafakkur va axloqiy xulq madaniyatini rivojlantirish: Tarbiyachilar va ot-onalar olimlarning tadqiqotlari va davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va loyihalar bilan birlashtirilgan holda ishlaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda milliy qadriyatlarni singdirishning quyidagi metodik usullarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Ko‘rgazmali metodlar: Milliy kiyimlar, rasmlar, videoroliklardan foydalanish bolalarda vizual eslashni mustahkamlaydi.

Amaliy metodlar: Milliy o‘yinlar (“Chillak”, “Arqon tortish”), sahnalashtirish, dramatisatsiya bolalarda ham ijtimoiy, ham axloqiy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Og‘zaki metodlar: Ertak, maqol, hikoya, doston orqali suhbat va mantiqiy xulosa chiqarish. Masalan, “Alpomish” ertagi orqali vatanparvarlik va jasorat, mehr-oqibat mavzulari bo‘yicha suhbat va ijodiy mashg‘ulotlar olib boriladi.

Oila azaldan muqaddas dargoh sifatida qadrlangan. Oila a‘zolari muayyan turmush tarziga, tartib-qoidalarga rioya qilgan. Tajriba orttirish, saranjomlik va tejamkorlik, qat‘iylik va to‘g‘riso‘zlik singari odob-axloq me‘yorlarini kamol toptirish azaldan oilaning asosiy vazifasi bo‘lib kelgan.

Agar oilada hamkorlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat, bir-biriga ishonch kuchli bo‘lsa, rostgo‘y, samimiy, mehribon, o‘z yaqinlari, qarindosh-urug‘lari, qo‘shnilariga doimo yordam berishga tayyor bo‘lgan insonlar voyaga yetadi. Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo‘ladi. “Agarda bir mamlakat aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”.(Abdurauf Fitrat). Tarbiyachilar, ota-onalar va davlat organlari birgalikda ishlasa, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya modeli maktabgacha ta’limda samarali qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqlari va qarorlari: “Milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish ... barchamizning muqaddas burchimizdir”, intervyu .
2. Abdirazakova P.S. O‘zbekiston matbuotida maktabgacha ta’lim tarbiyada qadriyatlarning tushuntirilishi va donishmandlarimiz tarbiyaviy merosi. 2024.
3. Aktamova Z. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash Journal of international scientific research Volume 2, Issue 8, April, 2025 Online ISSN: 3030-3508 <https://spaceknowladge.com>
4. Qodirov A. “Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi”, T.: O‘qituvchi, 2019.
5. Tarbiya [Matn]: 11-sinf uchun darslik / D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Isломov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuhammedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
6. Musaeva N. Reflection of the Social Environment in Children's Quasidiological Speech. // “International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis” In Volume 04 Issue 11 November 2021. 23.

7. Musaeva N. Speech act expression in children's quasidialogue // В международная конференция академических наук (Т. 2, Выпуск 10, сс. 80– 85). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10065357>

8. www.ziyonet.uz – ta’lim va tarbiya resurslari portali.